

O'zbekiston Prezidenti Qozog'iston xalqi va Prezidentiga ta'ziya yo'lladi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning maktubida qardosh Qozog'iston hududidagi fojiali voqealar va ularning natijasida ko'plab harbiylar va aholi vakillari nobud bo'lgani hamda og'ir jarohatlar olgani, ko'rilgan katta talofatlar munosabati bilan Prezident Qasim-Jomart Toqayevga va do'st Qozog'iston xalqiga chuqur ta'ziya izhor etilgan.

Davlatimiz rahbari Vatan osoyishtaligi va mamlakat xalqining himoyasi yo'lida qurbon bo'lgan fidoyi farzandlarning oila a'zolari va yaqinlariga samimiy hamdardlik bildirib, jarohat olganlarning tez fursatlarda shifo topishlarini tilagan.

Manba